

JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI YO'NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY-PEDAGOGIK MADANIYATINI TARBIYALASHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINING QO'YILISHI VA ULARNING ASOSIY BOSQICHLARI

Ravshanbek LATIPOV

Dotsent, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etish orqali jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining tajriba-sinov ishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim jarayoni, tajriba-sinov, kasbiy madaniyat, asosiy bosqich, fan va ta'lim rivoji, bo'lajak mutaxassislarning kasbi.

Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari asosida talabalarining kasbiy madaniyatini shakllantirish yuzasidan professor-o'qituvchilar o'rtasida quyidagicha so'rovnomma o'tkazildi:

– Sizning fikringizcha, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi fanlari oldida turgan asosiy vazifa nimalardan iborat bo'lishi zarur?

– Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishidagi fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishga munosabatingiz qanday?

– Mashg'ulotlar jarayonida kasbiy bilimlar va kasbiy madaniyatni shakllantirish qanday amalga oshiriladi?

– Shaxsan siz kasbiy madaniyat mohiyatini to'laqonli anglayman deb hisoblaysizmi?

– Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishidagi talabalarni yo'nalish fanlarining talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini qanday baholaysiz?

– Talabalar o'rtasida kasbiy madaniyatni shakllantirish g'oyalarini targ'ib etish borasida muayyan tajribaga egamisiz?

– Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishingizga imkon bermayotgan omillar nimalardan iborat?

– Talabalar o'rtasida kasbiy madaniyatni shakllantirish targ'ibotini tashkil etish uchun qanday sharoit zarur deb hisoblaysiz?

– Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda qanday yo'l, shakl, metod va vositalar maqbul sanaladi?

Ushbu savollarni o'qituvchi-professorlar oldiga qo'yishdan maqsad:

– ilmiy farazning haqqoniyligini, talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda fan asoslarining zaruriyligi, o'quv-ijodiy faoliyat davrlarining muhimligini aniqlash;

– talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi-talaba faoliyati, munosabati va muloqotini aniq tashkil etish, boshqarish hamda nazorat qilish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishning muqobil yo'llarini ishlab chiqish hamda amalda qo'llash metodikasini yaratish;

– ta'lim jarayonida talabalarining kasbiy madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va xaritasini ishlab chiqish hamda amalda qo'llash;

– talabalarni o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash uchun pedagogik vaziyatlar, o'yinlar, treninglarning samarali usullari va mezonlarini qo'llash;

– kasbiy madaniyatni shakllantirishga oid o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonining aniq yo'nalishlarini ishlab chiqish;

– talabalar o'rtasida kasbiy madaniyatni shakllantirishga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish.

Tadqiqot muammosi doirasida qayd etilgan masalalar yuzasidan tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining ishtirokchilari bo'lgan jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi fanlarining o'qituvchilari tomonidan yuqorida qayd etilgan savollarga quyidagi mazmundagi javoblar olindi.

O'qituvchilarning deyarli barchasi kasbiy ta'lim yo'nalishi fanlari oldida turgan asosiy vazifa-talabalarga chuqur jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishidagi bilimlarini berish, ularda kasbiy madaniyat sifatlarini shakllantirishdan iborat deb ta'kidlaganlar. O'z fani bo'yicha puxta bilim va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilarning o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha ijobiy

tajribalarga ega ekanliklari aniqlandi. Professor-o'qituvchilar yosh avlod ta'limi va tarbiyasida alohida o'rin tutib kelganliklari, hunarga o'rgatish masalalariga e'tibor berganliklariga alohida urg'u berildi. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi fanlarining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash borasidagi bilimlardan bo'lg'usi pedagoglarni xabardor qilishdan iboratdir. Ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining jadallashuvi, ijtimoiy munosabatlar jarayonining chuqurlashuvi va globallasuvi sharoitida mutaxassis shaxsining tub mohiyati uning intellektual salohiyatini o'stirish, dunyoqarashini boyitish, tafakkur doirasini kengaytirish haqida fikr bildirdilar.

Bo'lajak pedagog dars o'tish maqsadini umumiy fan maqsadi bilan bog'laydi, jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha mutaxassis shaxsini shakllantiradi. Professional o'qitish metodi va jarayonlarini yaxshi biladi, tarbiya maqsadini boshqa o'rganilayotgan mavzu bilan bog'lay oladi. Didaktik holatlarni to'g'ri tushunadi hamda aniq maqsadga qaratilgan dars o'tish malakasini egallaydi. Masalan, mavzu, bo'lim, ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladi. Ammo mavzudan mavzuga o'tishda ayrim muammolar ham mavjud. Ba'zi talabalar ma'lum darajada ta'lim mazmuniga, dastur materiallariga asosan dars berish imkoniyatiga ega. Dars berishni yaxshi bilib, lekin mavzularni, bo'limlarni biriktira olmaydi.

Bunday hollarda hamkorlik pedagogikasi yetishmaydi. Shuning uchun ham biz bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish ko'rsatkichlarini ishlab chiqib, ularni professor-o'qituvchilarga tavsiya etdik. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy madaniyat haqidagi bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport fanlari yo'nalishi mashg'ulotlari mazmuni va metodikasi ishlab chiqildi. Bunda talabalar tomonidan ma'lum darajada bilimlar tizimining o'zlashtirilishi va izlanish jarayonlari, nazariy va amaliy tayyorgarligi, o'zlashtirishi natijalariga e'tibor qaratildi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha pedagoglarning kasbiy madaniyatni shakllantirish mazmuni:

- talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish xususiyatlari;
- mutaxassisning kasbiy darajasini aniqlash;
- bilim va malakalarni egallashda mustaqillik;
- yangi vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni mustaqil ishlatish qobiliyati;

- fikr almashish qobiliyati;
 - tashabbuskorlik.
- Ijodiy potensialni aniqlash:
- kasbiy-ijodiy tayyorgarlik;
 - dadillik va jur'at bilan tasavvur etish;
 - oliy ta'lim, professional ta'lim faoliyatini ko'ra bilish;
 - pedagog faoliyatida ta'sirchanlik;
 - fikr almashish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish.

Ijtimoiy mehnat faoliyati:

- ijtimoiy faollikni namoyon etish;
- oliy ta'lim jarayonida yangi muammolarni ko'ra bilish;
- tavakkal ishlashga tayyor turish;
- muhokamalarda mustaqil fikr yuritish;
- fikr almashish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish.

Mashg'ulot jarayonida:

- dastur materiallaridan foydalanish;
- omma bilan aloqada bo'lish.

Kasbiy madaniyatga doir bilimlar.

1. Maxsus fanlar va pedagogik texnologiya, loyihalashtirishga oid tushunchalarga ega bo'lish.

2. Jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha mutaxassislik bilimlariga ega bo'lish va komputerdan foydalanish, dasturlar tuzish, hisoblash haqidagi bilimlarning asosini bilish.

3. Axborot vositalari va metodlari haqida bilimga ega bo'lish.

4. Maqsadli faoliyat dasturi asoslarini bilish.

5. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari bo'yicha yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda shunday xulosaga keldik:

6. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi talabalari kasbiy madaniyatni shakllantirishda katta imkoniyatlarga egadir. Ushbu imkoniyatlar jismoniy tarbiya va sport va ijtimoiy fanlar mazmunida hamda mutaxassis shaxsini shakllantirishga yo'naltirilganligida ko'rinadi.

7. Axborot vositalari va metodlari haqida bilimga ega bo'lish.

8. Maqsadli faoliyat dasturi asoslarini bilish.

9. Muammoli vaziyatlarni hal etish va texnologiyalar haqida bilimga ega bo'lish.

10. Jamoa ijodiy faoliyatining psixologik asoslarini bilish.

Ilmiy-texnik rivojlanish asosida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini aniqlovchi hujjatlar mazmunini bilish.

11. Yangi O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy yo'nalishlarini bilish.

12. Mehnat jamoasi faoliyatini ifodalovchi qonunlarni bilish.

13. Atrof-muhitni himoyalash.
14. O'quv muammolarini tashxis qilish.
15. Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish.

Kasbiy madaniyatga doir ko'nikmalar.

1. Jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha mutaxassislik faoliyatiga doir ko'nikmaga ega bo'lish.
2. Mehnatni tashkil etish metodlari, jihozlash texnologiyalarini o'zlashtirish.
3. Komputerdan va yuqori darajada dasturlash ko'nikmasiga ega bo'lish.
4. Ilmiy-texnik manbalar bilan mustaqil ishlash.
5. Komputerga asoslangan holda jismoniy tarbiya va sport fanlari bilan ishlash.
6. Ilmiy-texnik vazifalarni mustaqil hal etish.
7. Evristik metodlarni amaliyotga joriy etish.
8. Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarish madaniyatiga ega bo'lish.
10. Jamoada halol mehnat qilish.
11. Ilmga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish.
12. Dars materiallarini yaxshi bilish.

Bilimlarni tajribada qo'llash va tahlil qilish.

Kasbiy madaniyatga doir malakalar.

1. Mehnat faoliyati, texnologiya va jihozlashni joriy qilish;
2. Mutaxassislik faoliyatida komputerdan ishlash qobiliyatiga ega bo'lish va yuqori darajada dasturlash.
3. Ilmiy-texnik manbalar bilan mustaqil ishlash;
4. Shaxsiy axborot fondini tashkil etish;
5. Ilmiy-texnik vazifalarni mustaqil hal qilish.
6. Evristik metodlar va texnologiya faoliyatiga asoslangan holda vazifalarni amaliy hal etish;
7. Jamoada ijodiy faoliyatni tashkil etish
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqarish madaniyatiga ega bo'lish.
9. Jamoada mehnat qilish.

Ish faoliyatini baholash.

1. O'rgangan bilimlarini amalda qo'llash.
2. Axborot mazmunini ko'paytirish.
3. Loyiha ishlarida faol ishtirok etish.

Jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha kasbga tayyorgarlik yuzasidan bilim olish, aniq maqsadga qaratilgan bilimlarni egallash, zamon talablari asosida ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, pedagogik faoliyatga nisbatan qarashlar shakllantirildi. Maqsadga erishish, hayotga, jamiyatga ilmiy dunyoqarash va axloqiy ideallar rivojlantirildi. Axloqiy-siyosiy, ruhiy va jismoniy, kasbiy xulq va odob, faoliyat talablari asosida talabalarining jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha kasbiy rivojlanishiga ahamiyat berildi.

Ularning aqliy va jismoniy faoliyatiga doir bilimlari takomillashtirildi. Jismoniy tarbiya va sport ta'limi va tarbiya vositasida pedagog shaxsini shakllantirishga psixologik tayyorgarlik ko'rildi va talabalarining hayotga va kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati, ijobiy xislatlari tarkib toptirildi. Qiyinchiliklarni bartaraf etishga ichki tayyorgarligi oshirildi.

Jismoniy tarbiya va sport fanlari bo'yicha ta'lim-tarbiya va unga psixologik tayyorgarlik o'rtasida dialektik uzviylik mavjud. Tarbiya jarayonida talaba faoliyatining aniq maqsadga qaratilgan omillari namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida esa faqatgina ta'lim vazifalari hal etilibgina qolmay, ta'lim oluvchilarning kasbiy madaniyati rivojlanishi va psixologik tayyorgarligiga doir ko'nikma va malakalari takomillashtirildi.

Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik fanlar yordamida amalga oshirilgan ekan, bunda ishlab chiqilgan metodika mazmuni, ta'sir doirasi ilmiy-pedagogik talablarga javob berishi, nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishi, pedagogik tamoyillarga tayanishi, ayniqsa pedagogik-psixologik jihatdan puxta tahlil etilishi lozim. Binobarin, ishlab chiqilgan metodika tajriba-sinov ishlariga oid materiallarni tanlash, tizimlashtirishda tadqiqotning ilmiy farazi talablariga mos bo'lishi lozim. Shuning uchun ham tadqiqot muammosiga doir tajriba-sinov ishlari mavjud ob'ektlarning ilmiy-pedagogik xususiyatlariga, talabalarining nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, metodik tadqiqot muammosini aniq qamrab olish va ushbu muammolarni maqsadli hal etishga qaratildi.

Tadqiqot ishimizning oldingi bob va paragraflarida talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning nazariy masalalari ko'zdan kechirildi. Har qanday nazariy masala amaliyotga tatbiq etilib, o'z yechimini topa olgan taqdirdagina u o'z samarasiga ega bo'ladi. Shuning uchun ilmiy-nazariy va pedagogik yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqot ishlarida amaliy ahamiyat muhim rol o'ynaydi. Amaliy faoliyat tajriba-sinov ishlarida o'z yechimini topadi.

Shunga asosan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy madaniyatini shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlarimizni ta'minlovchi-asoslovchi, tasdiqlovchi va yakunlovchi-shakllantiruvchi bosqichlarda tashkil etdik.

Tajriba-sinov ishlarining asoslovchi bosqichida tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy farazi asosida muammoning hozirgi holati o'rganildi va tahlil qilindi. Tasdiqlovchi bosqichda, o'rganilgan va tahlil qilingan holat yuzasidan tajriba-sinov ishlarining dasturi va metodikasi tayyorlandi hamda tajriba-sinov

ishlarining xususiyatidan kelib chiqib mazkur dastur va metodika sinovdan o'tkazildi.

Yakunlovchi-shakllantiruvchi bosqichda olingan natijalar, dastur va metodika yakunlari tahlil qilinib, umumlashtirildi.

Аннотация. В данной статье рассматривается опытно-экспериментальная работа студентов, обучающихся по направлению "Физическая культура". Этот опыт включает в себя организацию самостоятельной образовательной деятельности студентов этого направления.

Ключевые слова: процесс самостоятельного обучения, эксперимент-тестирование, профессиональная культура, основной этап, развитие науки и образования, профессия будущего специалиста.

Annotation. This article highlights the experimental work of students in the field of physical education, which is carried out by organizing independent educational activities for students in this field.

Key words: process of independent learning, experiment-testing, professional culture, main stage, development of science and education, profession of a future specialist.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.S. Sharipov. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari. – T.: TDIU, 2005.
2. D.I. Ro'ziyeva. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. P.f.d. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2007.
3. X.Y. Sharifbayeva. "Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (qiyosiy tadqiqotlar asosida)" mavzusidagi dissertatsiya. ped.fan.nom. diss. Avtoref. – T., 2007.
4. Hodges S. G. Children as readers. London: Edusation, 2009.
5. Innsheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, Republic of Korea).